

XIX ASRDA TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDA SUD-HUQUQ TIZIMI

O`rmonjonov Diyorbek Islomjon o`g`li

Nizomiy nomidagi O`zMPU Tarix fakulteti kechgi bo`lim 401-guruh talabasi

Yakobjanov J.J

Ilmiy rahbar: PhD, dots.

Annotatsiya: *Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat nizomda viloyat harbiy gubernatori zimmasiga an'anaviy musulmon sud muassasalarini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. Ma'muriy va sudlov tizimini o'z qo'lida birlashtirgan harbiy gubernator huzurida harbiy-sud komissiyasi tuzilgan edi. 1865 yilgi — nizomga asosan mahalliy aholi uchun an'anaviy sud tizimi –o'troq aholi uchun qozilik sudi va ko'chmanchi aholi uchun biylik sudi saqlab qolindi va ularga fuqarolik va jinoiy ishlarni avvalgidek shariat qoidalari asosida ko'rib chiqish vakolati berildi, ammo qozilarni tayinlash va bo'shatish harbiy-gubernator ixtiyoriga berildi. Ushbu maqolada, Turkiston general gubernatorligida sud tizimi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Turkiston, sud tizimi, general gubernatorlik, fuqarolik, harbiy-sud, an'anaviy ierarxiya, Rossiya gubernatorligi.*

Аннотация: *При военном губернаторе была создана военно-судебная комиссия, которая объединила в своих руках административную и судебную системы. Согласно положению 1865 года, сохранялась традиционная судебная система для местного населения – казийский суд для оседлого населения и бийликский суд для кочевого населения, которым, как и прежде, предоставлялись полномочия рассматривать гражданские и уголовные дела на основе норм шариата, однако назначение и увольнение казиев оставалось на усмотрение военного губернатора. В данной статье представлены размышления и наблюдения о судебной системе Туркестанской губернии.*

Ключевые слова: *Туркестан, судебная система, генерал-губернаторство, гражданский, военный суд, традиционная иерархия, российское губернаторство.*

Abstract: *The temporary regulation on the administration of the Turkestan region entrusted the regional military governor with the task of controlling traditional Muslim judicial institutions. A military judicial commission was established under the military governor, who combined the administrative and judicial systems in his hands. According to the regulation of 1865, the traditional judicial system for the local population was preserved - the qazi court for the settled population and the biylik court for the nomadic population, and they were given the authority to consider civil and criminal cases based on the rules of Sharia, as before, but the appointment and dismissal of qazis was left to the discretion of the military governor. This article presents thoughts and observations about the judicial system in the Turkestan Governorate.*

Keywords: *Turkestan, judicial system, governor-general, civil, military court, traditional hierarchy, Russian governorship.*

XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim burilish davri bo'ldi. Aynan shu davrda Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasi bosib olindi va 1867-yilda bu hududda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Bu siyosiy tuzilma Rossiya imperiyasining mustamlakachilik maqsadlarini amalga oshirishda asosiy ma'muriy-siyosiy markaz bo'lib xizmat qildi. Rossiya imperiyasi yangi o'lka ustidan to'liq nazorat o'rnatish, uning iqtisodiy, siyosiy va huquqiy hayotini o'z tizimiga moslashtirishga kirishdi. Shu jarayonda mahalliy xalqning avvaldan shakllangan sud-huquq tizimi ham o'zgartirildi, yangi tartiblar kiritildi. An'anaviy sud tizimiga ko'nikkan mahalliy aholi vakili uchun bu yangi tartiblarga majburan amal qilish og'ir kechdi. Garchi diniy ulamolar sud jarayonlariga o'zgartirishlar kiritish muhimligini e'tirof etsalar-da, amalda eski tartiblarning tiklanishini talab qila boshladilar. Rossiya savdo-sanoat doiralari manfaatlarini himoya qiluvchi gazetasida mustamlaka hukumatining sud tizimini isloh qilish harakatlari tanqidga uchradi. Unda rus hukumati musulmon ruhoniylarini o'ziga qarshi qo'yayotganligi, mahalliy aholining an'analari va qonunlariga aralashuv katta norozilik keltirib chiqarganligi alohida qayd etilgan edi. 1865-yilda Toshkent shahri Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, bosib olingan hududlar "Turkiston viloyati" deb atalgan. 1867-yil 11-iyulda imperator Aleksandr II farmoni bilan "Turkiston general-gubernatorligi" tashkil qilindi. Dastlab uning tarkibiga Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari kiritilgan, keyinchalik Farg'ona, Samarqand va Kaspiyorti viloyatlari qo'shildi. General-gubernator oliy hokim sifatida harbiy, ma'muriy, sud va xo'jalik ishlarini boshqarish vakolatiga ega edi. U to'g'ridan-to'g'ri Rossiya imperatori va harbiy vazirga bo'ysunar edi. Shu tariqa, o'lka boshqaruvi to'liq mustamlakachilik asosida qurilgan edi. Rossiya hukumati 1867-yilgi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi vaqtinchalik nizom" (ruscha: "Vremennoye polojenie ob upravlenii Turkestanskogo kraya") orqali o'lka boshqaruvining huquqiy asosini belgilab berdi.⁶¹ Nizomga ko'ra, mahalliy boshqaruv organlari, jumladan, sud idoralari ham Rossiya qonunlariga bo'ysundirilgan, ammo vaqtincha "mahalliy odatlar va islom qonunlariga amal qilish"ga ruxsat etilgan. Bu nizom mahalliy aholining diniy, milliy va huquqiy an'alarini nazorat ostida ushlab turish va ularni asta-sekin Rossiya imperiyasining yagona huquqiy tizimiga kiritish maqsadida ishlab chiqilgan edi.⁶²

Sud tizimi imperiya hukumati tomonidan har bir shakliga aralashish jarayoni keskin kuzatilar edi.

I. Sud tizimining umumiy tuzilishi:

Turkiston o'lkasida ikki darajadagi sud tizimi amal qilgan:

1. Rossiya imperiyasi sudlari (mustamlakachi sudlar);
2. Mahalliy sudlar (qozilar sudi va biylar sudi);

Bu ikki tizim parallel ravishda faoliyat yuritgan, biroq yakuniy so'zni Rossiya ma'muriyati aytgan.

II. Mahalliy sudlar: Qozilar va biylar

⁶¹ . Abduraximova N.A., Ergashev F.R. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. -T.: Akademiya, 2002

⁶² Brodovskiy M. Zametki o zemledelii v Samarkandskom rayone // Turkestanskiy sbornik. -SPb., 1873.-S. 419-447.

3.Z.IIhomov. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022.

Mahalliy musulmon aholining fuqarolik va oilaviy masalalarini hal etuvchi sudlar qozilar sudi deb atalgan. Ular shariat qonunlari (fiqh) asosida ish yuritgan. Qozilarni tuman boshliqlari tasdiqlagan, ammo general-gubernator tomonidan tasdiqlash yakuniy bo'lgan.

1.Qozilar sudi quyidagi masalalarni ko'rgan:

2.Nikoh va taloq masalalari

3.Meros, mulk, qarz, vasiyat

4.Ijtimoiy nizolar va bitimlar

Bundan tashqari, biylar sudi (ko'proq qozoq va qirg'izlar orasida) odat huquqi – “adat” asosida ish yuritgan. Biylar sudlari ko'chmanchi aholining an'anaviy huquqiy tartibini saqlab qolish uchun ruxsat etilgan edi.

III. Sud jarayonlari va apellyatsiya tartibi:

Mahalliy sudlarning qarorlariga nisbatan shikoyatlar tuman boshlig'i yoki viloyat sudiga yuborilardi. Rossiya ma'muriyati mahalliy sudlarning har bir qarorini nazorat qilgan. Agar ish siyosiy yoki harbiy tusga ega bo'lsa, u holda general-gubernatorlik huzuridagi maxsus komissiyaga yuborilgan.⁶³

Rossiya imperiyasi sud tizimidan siyosiy bosim vositasi sifatida foydalangan. “Adolat” niqobi ostida mahalliy aholining manfaatlari kamsitilgan. Masalan, rus fuqarosining guvohligi musulmon guvohligidan ustun qo'yilgan, shuningdek, shariat sudlarining qarorlari ko'p hollarda Rossiya sudlari tomonidan bekor qilingan. Bu orqali imperiya mahalliy xalqni asta-sekin o'z huquqiy tizimidan ajratib, rus qonunlariga bo'ysundirishni maqsad qilgan.⁶⁴

Mahalliy aholi hayotiga ta'siri: Sud tizimidagi o'zgarishlar xalq hayotida jiddiy ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Avvallari adolat markazi bo'lgan qozilar endi Rossiya ma'muriyati tomonidan tayinlanadigan mansabdor shaxsga aylandi. Natijada, qozilar sudi nufuzi pasaydi, ishonch yo'qoldi. Biylar sudi ham asta-sekinlik bilan o'z mavqeini yo'qota bordi. Shu tariqa, mahalliy xalq orasida “adolatni sotib olish” holatlari, korrupsiya va sudning siyosiylashtirilishi kuchaydi.

Milliy uyg'onish davrida sud mustaqilligi masalasi XX asr boshlariga kelib, jadid ziyolilari (Munavvarqori, Behbudiy, Fitrat va boshqalar) sud mustaqilligi, adolatli hukm, milliy qonunchilik zaruriyati haqida yozganlar. Ular rus sudlari adolatsizligini, mahalliy xalqning huquqiy tengsizlikda qolayotganini tanqid qilganlar. Shu tariqa, sud-huquq tizimidagi muammolar Turkiston milliy ozodlik harakatining siyosiy asoslaridan biriga aylandi.

Turkiston general-gubernatorligi sud tizimining tugatilishi : 1917-yil Fevral inqilobidan so'ng Rossiya imperiyasi qulab tushdi. Shu bilan birga, Turkiston general-gubernatorligi ham tugatildi. Lekin o'lkada sud-huquq tizimi bir muddatgacha eski tartibda ishlashda davom etdi. 1918-yilda Turkiston Muxtor Sovet Respublikasi e'lon

⁶³ Z.Ilhomov. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022.

⁶⁴ YU.Skalyer. Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo'qon, Buxoro va G'uljaga sayohat qaydlari. Tarjima: Z.A.Saidboboyev. Toshkent. O'zbekiston NMIU. 2019.

⁵ M. Sh. Tursunov. Rossiya imperiyasi davrida O'rta Osiyo boshqaruvi. Toshkent, 2004

qilinishi bilan sobiq mustamlaka sud tizimi butunlay bekor qilindi, yangi – sovetcha sud tizimi joriy qilindi.

Turkiston general-gubernatorligi davrida sud-huquq tizimi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish vositasi bo'lgan. Mahalliy xalqning shariatga asoslangan adolat tizimi bosqichma-bosqich cheklangan, Rossiya qonunlari va ma'muriy tartiblari ustunlikka ega bo'lgan. Natijada, mahalliy aholining huquqiy tengligi buzilgan, ijtimoiy adolat zaiflashgan. Biroq shu jarayon milliy ongning uyg'onishiga, mustaqillik va milliy sud tizimining tiklanish g'oyalariga turtki bergan.⁶⁵

Xulosa qilib aytganda, Turkiston xalqlari bunday sudlar oldida o'zlarini ishonchsiz va himoyasiz his qilganlar, ularning o'zlari o'rgangan an'anaviy urf-odat va an'analari asosidagi me'yorlardan uzoq bo'lgan bunday huquqiy tartiblarni chigal va tushunarsiz deb bilganlar. Umuman olganda, Turkistonda sud tizimini isloh qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad islom dini va din peshvolarining aholiga ta'sirini kamaytirishdan iborat bo'lsa-da, amalda bu kutilgan natijani bermadi. Ko'p o'tmasdan, yangi o'rnatilgan tartiblarning talab darajasida emasligi ma'lum bo'ldi. Birinchidan, ma'muriy boshqaruv bilan mashg'ul amaldorlar sud ishlariga ko'p vaqt ajrata olmadilar va natijada ko'p muammolar o'z vaqtida echimini topa olmadi. Ikkinchi tomondan, maxsus huquqiy bilim va saviyaga ega bo'lmagan viloyat darajasidagi amaldorlar sudlov tizimida qoniqarli darajada ish olib bora olmadilar. Maxsus bo'limda maxfiy josuslar xizmati ayniqsa qadrlangan. Har bir tashkilotning o'z agenti bo'lib, ular maxsus bo'limga josuslik xabarlarini yetkazib turganlar.

Xususan, inqilobiy tashkilotlarda josuslar ish olib borishi shart bo'lgan. Maxfiy xizmatchilar o'zlari ish olib borayotgan tashkilotlar haqida ayg'oqchilik xabarlarini to'plash bilan birga siyosiy partiyalar hayotida, inqilobchilarning qamalishida ham faol ishtirok etganlar.

Rossiya imperiyasi ichki ishlar vazirligining politsiya departamenti organi bo'lgan. Turkistonning sud-huquq tizimi mustamlakachilik siyosati natijasi bo'lib, u Rossiya imperiyasining manfaatlarini himoya qilish, mahalliy aholi ustidan nazorat o'rnatish va o'lka boyliklarini ekspluatatsiya qilish uchun xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. Abduraximova N.A., Ergashev F.R. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. -T.: Akademiya, 2002.
2. Brodovskiy M. Zametki o zemledelii v Samarkandskom rayone // Turkestanskiy sbornik. -SPb., 1873.-S. 419-447.
3. Z.IIhomov. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022.
4. YU.Skalyer. Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo'qon, Buxoro va G'uljaga sayohat qaydlari. Tarjima: Z.A.Saidboboyev. Toshkent. O'zbekiston NMIU. 2019.

⁶⁵ . M. Sh. Tursunov. Rossiya imperiyasi davrida O'rta Osiyo boshqaruvi. Toshkent, 2004

5. М. Ш. Турсунов. Россия imperiyasi davrida O'rta Osiyo boshqaruvi. Toshkent, 2004